

**YOSHLAR O'RTASIDA IJTIMOY FAOLLIKNI KUCHAYTIRISH VA HUQUQIY
MADANIYATNI YUKSALTIRISHNING DOLZARB MASALALARI**

Ilmiy rahbar:

Axmedov Sanjar Bektemirovich

Perfect universiteti dotsenti, t.f.f.d. (PhD)

e-mail: axmedov.s@perfectuniversity.uz

Orcid id: 0000-0001-7910-0765, Tel.: +998909551819,

Safaraliyev Abbosxon Asqarali o'g'li

MV TOQQQ Nurobod 99677-harbiy qism Madaniyat markazi boshlig'i

Perfect University Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix yo'nalishi

Orcid id: 0009-0007-6007-6524 Tel.: +99893 326-00-77, +99891 001-99-77,

e-mail: abbosxonsafarov@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada "madaniyat", "ma'naviyat", "mafкура" tushunchalari to'g'risida alohida adabiyotlarga tayangan holdagi to'g'ri va aniq ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan bir qatorda "madaniyat", "ma'naviyat" va "mafкура" tushunchalarining har birini tahlil qilib misollar bilan aniq va batafsilroq yozib chiqilgan. Shuningdek, mazkur tushunchalar xususida ilmiy talqinlar misollar bilan keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar. *Madaniyat, mafкура, ma'naviyat, yangi O'zbekiston, respublika, milliy, siyosatchi, tarix.*

Аннотация. *В данной статье даны корректные и достоверные сведения о понятиях «культура», «духовность», «идеология» на основе отдельной литературы. Кроме того, каждое из понятий «культура», «духовность» и «идеология» анализируется и расписано более подробно с примерами. Также с примерами даны научные интерпретации этих понятий.*

Ключевые слова. *Культура, идеология, духовность, новый Узбекистан, республика, национальный, политик, история.*

Abstract. *This article provides correct and accurate information about the concepts of "culture", "spirituality", "ideology" based on separate literature. In addition, each of the concepts of "culture", "spirituality" and "ideology" is analyzed and written in more detail with examples. Also, scientific interpretations of these concepts are given with examples.*

Keywords. *Culture, ideology, spirituality, new Uzbekistan, republic, national, politician, history.*

Yoshlar huquqiy madaniyati tushunchasiga ta'rif berishda, bu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borgan huquqshunoslar, olimlar turlicha fikrlar berib o'tishgan. Bu muammoni hal etishda birinchi navbatda huquq va madaniyat tushunchalari bilan o'zaro tadqiq qilish katta

o‘rin tutadi deydi R. Maxmudov o‘zining “Huquq va madaniyat” nomli risolasida¹. “Madaniyat atamasi” o‘z hajmi va mazmuni jihatidan xilma-xil bo‘lgan tushunchalarni ifodalash uchun qo‘llaniladi.

Falsafiy adabiyotlarda “Madaniyat” tushunchasiga 500 dan ortiq ta‘rif berilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich doim o‘sib bormoqda. “Madaniyat” kategoriyasiga berilgan eng ko‘p yondashuv, bu insoniyatning rivojlanish bosqichida qo‘lga kiritilgan moddiy va ma‘naviy qadriyatlar yig‘indisi deb qarashdir².

Huquqiy adabiyotlarda madaniyatning moddiy qadriyat sifatida qaralishini biz A.F.Gramina, V.M.Chxekvadze, L.S.Yavich va boshqa mualliflarning ishlarida uchratishimiz mumkin. Ikkinchi bir yondashuvda esa madaniyatga ijodiy faoliyatning sinonim sifatida qaralishidir. Bu yondashuvni huquqiy sohada ishlatadigan bo‘lsak, bunda huquqiy ijodkorlik faoliyati tushuniladi. Huquqiy madaniyatni o‘rganishda bunday yondashuvni Y.V.Agranovskaya, Y.A.Zarchenko, S.N.Kojevnikov kabi mualliflarning ishlarida uchratish mumkin. Keyingi yondashuv, jamiyat ijtimoiy tizimidagi subyektiv unsurlarni madaniyat tushunchasidan ajratib olishdir.

Yuridik adabiyotlarda huquqiy madaniyatni aniqlashda subyektiv-intelektual unsurlar huquqiy savodxonlik, huquqiy tushunish va boshqalarga tayanib ish olib borgan mualliflar ham mavjud. Bularga S.S.Alekseyev, E.A.Lukasheva, R.K.Gusinov va boshqalarni ishini misol qilib olishimiz mumkin³.

Fikrlarning umumiyligi madaniyat tushunchasini subyektning ma‘naviy rivojlanish darajasi bilan bog‘lab o‘rganishdir degan fikrga kelishimizga sabab bo‘ladi.

Huquqiy madaniyatni o‘rganishda, bu fikr ham o‘ziga xos o‘rin tutadi, chunki subyektning huquqiy madaniyati darajasi huquqiy madaniyatni tasniflashda uni o‘rganishda asosiy yo‘nalishi bo‘lib xizmat qiladi. Jahon fanlari miqyosida madaniyatga oid yondashuvlarni 3 guruhga bo‘lish mumkin: ya‘ni antropologik, sotsiologik va falsafiy yondashuv⁴.

Madaniyat mavzusini qadriyat sifatida tushunish, unga aksiologik nuqtai nazardan yondashishga undaydi. (Aksiologiya – yunonga “aksiya” – arzish, qadriyat, qadriyatlar haqidagi ta‘limot) unga muvofiq u yoki bu hodisada namoyon bo‘ladigan inson faoliyati “madaniy” yoki “madaniyatsiz” sifatida baholanadi. Ma‘lumki, madaniyat, sotsiologik ma‘noga, inson o‘zini rivojlantiradigan dunyoni bildiradi. Demak, madaniyat falsafasini inson falsafasi sifatida ta‘riflaydigan mualliflarning ham fikriga qo‘shilmoq lozim.

Yaqingacha madaniyat umumiy nazariyasining to‘liqligicha tadqiq etilmaganligi bois jamiyatda shaxs huquqiy madaniyatini tushunchasini aniqlashda asosan quyidagi unsurlar ajratib ko‘rsatilar edi: shaxsning o‘z huquqlarini bilishi, qonun va boshqa me‘yoriy

¹ Mahmudov R. Huquq va madaniyat. Toshkent: O‘zbekiston, 1994 B. 4

² Малая Советская энциклопедия. Т5 Москва: Наука, 1959. С.238.

³ Алексеев С. С. Механизм и правового регулирования в социалистическом государстве. – Москва:1996. С. 176.

⁴ Ковалзон М.Я Место понятие, “Культура” в системе категория исторического материализма. –Москва: Наука, 1976 – С. 122.

hujjatlarning mazmuni va nimaga yo'naltirilganini aniqlashi unga nisbatan hurmatni shakllantirishi, qonuniylik va adolatni his qilish⁵.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, yoshlarning huquqiy madaniyatiga uning tarkibiy unsurlari asosida ta'rif beradigan bo'lsak, uni quyidagicha ta'riflash mumkin bo'ladi: yoshlarning huquqiy madaniyati ularning huquqiy savodxonlik darajasi, qonunlarga bo'lgan hurmati, huquqiy normalarni ijro etish hayotga tadbiiq eta olish ko'nikmasi, huquqbuzarliklarga nisbatan muhosasizlik, qonunlarga itoatkorlik, huquqiy faollik hamda tashabbuskorlik darajasidir.

Yoshlarni yuksak huquqiy madaniyati jamiyatimiz taraqqiyotini ta'minlaydi. Darhaqiqat, "jamiyatga huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi"da ham ko'rsatib o'tilganidek, yuksak huquqiy madaniyat – demokratik ta'minot poydevori hamda huquqiy tizim yetukligini ifodasidir⁶.

Yoshlarning huquqiy madaniyati mazmunining asosiy unsurlaridan biri, bu yuridik va majburiyatlarga subyektiv – ruhiy munosabat, huquqiy faoliyati davomida ularning amalga oshirilishidir. Yoshlarning huquq va majburiyatga bo'lgan munosabat huquqiy hayotining barcha hodisalarning baholashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yoshlarning huquqiy madaniyati to'g'risida gap borganda, birinchidan uning o'z huquq, erkinlik va majburiyatlarini bilishi tushunishi va to'g'ri anglashi baholashi uchun ikkinchidan esa ulardan amaliy faoliyatida foydalanishi haqida so'z yuritish joizdir. Yoshlarning huquqiy madaniyati asosi va o'ziga xos tomonlari quyidagi ko'rinishlarda o'z aksini topdi:

U.Todjixonov to'g'ri ta'kidlaganidek, yuridik savodxonlik huquqiy bilimlar alifbosini, eng oddiy normalarni bilishni, huquqiy ko'rsatmalarning murakkab labirintida adashmaslikni, barcha zarur holatlarda mutaxassisga yordam so'rab murojaat etish ehtiyojini o'zida shakllantirishni taqozo qiladi. Chunki, bu savodxonlik uning har qanday holatda ham o'z xatti-harakatlarini belgilab olishda huquqiy talablarga muvofiq keladigan etalonlarga suyanishga imkon beradi⁷.

Huquqiy savodxonlik, bu faqat ma'lum bir huquqiy normalar, huquq tarmoqlari haqida ma'lumotga ega bo'lishgina emas, balki turli xil huquqiy ko'rinishlar, davlat va jamiyat hayotini huquqiy asoslarini rivojlantirish to'g'risida xabardorlik ham demakdir. Shunday qilib huquqiy savodxonlik, huquqiy bilimlarga ega bo'lish huquqiy madaniyatning bazasini tashkil etadi⁸ va jamiyatda insonlarning xulq-atvoriga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. Huquqiy savodxonlik, yuqorida ta'kidlab o'tganidek, faqat huquqni bilishgina emas, balki uni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasining mavjudligi hamdir. Ammo, yoshlarimiz orasida qonunlarni o'zlashtirib olish darajasi pastligi barchamizga ma'lum.

Yoshlarning huquqiy madaniyat – huquqqa doir bilimlarni shunchaki o'rganib olish emas, balki ulardan huquq – targ'ibotni va qonuniylikni mustahkamlashga ongli suratda

⁵ Abzalov E.M. Yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish muammolari. <https://www.elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/9124-sosiologik>

⁶ O'sha manba.

⁷ Tadjixanov U. Agar qonun ishlasa. Huquqiy demokratik islohotlar. Toshkent: Akademiya, 1997. – B. 57.

⁸ Зорченко Е.Н. Воспитание правовой культуры молодежи. – Минск, Беларусь.1986. – С. 26.

yo'naltirilgan amaliy faoliyatda foydalana olishidir. Agar bu bilim va ishonch yoshlarning amaliy faoliyatida yuzaga chiqmasa, u o'likdir va jonsizdir.

O.Balzakning "Fojiamiz shundaki, hech narsani qonunlarni bilganchalik yomon bilmaymiz"⁹-degan fikrlari bizning yoshlarimizga ham taalluqlidir.

Huquqiy faollik yoshlarning tashabbukorligi va ijodiy faoliyatida o'z aksini topadi. Biz yoshlarni yuksak darajada huquqiy madaniyatga ega deb aytishimiz mumkin, qachongina uning huquqiy ongi hayotga faol vazifalarni bajarishga qodir bo'lsagina hamda turar joy, mahalla, o'quv muassasalari majlis va yig'ilishlarida ishtirok etish.

Huquqiy faollikni shaxs huquqiy madaniyatining unsurlari sifatida qarashda ilmiy adabiyotlarda turlicha fikrlar berilgan. Ammo huquqiy madaniyat muammosi bilan shug'ullangan ko'plab huquqshunos olimlar huquqiy faollikka alohida o'rin berishgan¹⁰. Hatto ayrim olimlar ijtimoiy faollikni huquqiy madaniyatning asosiy elementi sifatida qarashgan¹¹. Ijtimoiy faollik Asosiy qonunimizda ham o'zining huquqiy asosini topgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33 – moddasida, fuqarolarning o'z ijtimoiy faolliklarini qonunlarga muvofiq mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar, - deb ko'rsatilgan¹².

Qonunlarga bo'lgan hurmat-barkamol yosh avlod huquqiy madaniyatining mavjud ko'rinishidir. Shuningdek, yoshlarda huquqiy javobgarlik va intizom tuyg'usi yuqori darajada shakllangan bo'lishi kerak. Har bir qilingan ish uchun javob berish kerakligini tushunib yetish kerak, javobgarlik borgan sari mustahkamlanib eng foydali va zaruriy odamga aylanmog'i lozim. Ayniqsa, insonning oila oldidagi ijtimoiy – huquqiy javobgarligi va burchi tuyg'usi bebahodir.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning huquqiy madaniyati deganda – ularning huquqiy savodxonlik darajasi, qonunlarga bo'lgan hurmati, huquqiy normalarni ijro etish, hayotga tadbiq eta olish ko'nikmalaridir, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik, huquqiy faollik hamda tashabbuskorlik darajasi tushuniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmudov R. Huquq va madaniyat. Toshkent: O'zbekiston, 1994 B. 4
2. Малая Советская энциклопедия. Т5 Москва: Наука, 1959. С.238.
3. Алексеев С. С. Механизм и правового регулирования в социалистическом государстве. – Москва:1996. С. 176
4. Ковалзон М.Я Место понятие, "Культура" в системе категория исторического материализма. –Москва: Наука, 1976 – С. 122.

⁹ O'sha manba.

¹⁰ Зорченко Е.А. Воспитание правовой культуры молодежи. Минск: Беларусь. 1986. – С. 34-38.

¹¹ Tadjixanov U., A.Saidov.Huquqiy madaniyat nazariyasi. – Toshkent: O'zR IIV akademiyasi. 1998. – B. 46-47.

¹² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – B. 3

5. Abzalov E.M. Yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish muammolari. <https://www.elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/9124-sosiologi>.
6. Tadjixanov U. Agar qonun ishlasa. Huquqiy demokratik islohotlar. Toshkent: Akademiya, 1997. – B. 57.
7. Зорченко Е.Н. Воспитание правовой культуры молодежи. – Минск, Белорусь.1986. – С. 26.
8. Зорченко Е.А. Воспитание правовой культуры молодежи. Минск: Белорусь. 1986. – С. 34-38.
9. Tadjixanov U., A.Saidov. Huquqiy madaniyat nazariyasi. – Toshkent: O‘zR IIV akademiyasi. 1998. – B. 46-47.
10. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – B. 3